

IQTISODIY VA IJTIMOIIY GEOGRAFIYA TA'LIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TALABALARDA IJODIY FIKRLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Mavlonov Ahmadjon Muhammedovich

Buxoro davlat pedagogika instituti "Geografiya" kafedrası dotsenti, g.f.n.

Temirova Mehriniso Ashraf qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish talabalarda ijodiy fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanida raqamli platformalar va multimedia vositalaridan foydalanish hududiy jarayonlarni tahlil qilish, global axborot manbalaridan samarali foydalanish hamda kreativ yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, raqamli texnologiyalar asosida ijodiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini o'rganish bugungi ta'lim tizimi uchun dolzarb va amaliy ahamiyatga egadir.

Kalit so'zlar: Raqamli texnologiyalar, ijodiy fikrlash, GIS, raqamli platformalar, kreativ yondashuv, analitik fikrlash, interaktiv ta'lim, multimedia, masofaviy ta'lim, innovatsion metodlar.

Мавлонов Ахмаджон Мухаммедович

доцент кафедры «География» Бухарского государственного педагогического
института, кандидат географических наук

Темирова Мехринисо Ашраф кизи

магистрант 1-го курса Бухарского государственного педагогического
института

Аннотация: Внедрение цифровых технологий в образовательный процесс играет важную роль в развитии у студентов творческого мышления, критического анализа и навыков самостоятельного принятия решений. Использование цифровых платформ и мультимедийных средств в обучении экономической и социальной географии способствует анализу территориальных процессов, эффективному использованию глобальных информационных ресурсов и формированию креативного подхода. Поэтому исследование методики развития компетенций творческого мышления на основе цифровых технологий является актуальной и практически значимой задачей современной системы образования.

Ключевые слова: Цифровые технологии, творческое мышление, ГИС, цифровые платформы, креативный подход, аналитическое мышление, интерактивное обучение, мультимедиа, дистанционное обучение, инновационные методы.

Mavlonov Ahmadjon Muhammedovich

Associate Professor of the Department of Geography at the Bukhara State
Pedagogical Institute, Candidate of Geographical Sciences

Temirova Mehriniso Ashraf qizi

1st-year Master's student at the Bukhara State Pedagogical Institute

Abstract: The integration of digital technologies into the educational process plays a crucial role in developing students' creative thinking, critical analysis, and independent decision-making skills. The use of digital platforms and multimedia tools in teaching economic and social geography enhances the analysis of spatial processes, promotes effective use of global information resources, and fosters creative approaches. Therefore, studying the methodology for developing creative thinking competencies through digital technologies is a relevant and practically significant task for the modern education system.

Keywords: Digital technologies, creative thinking, GIS, digital platforms, creative approach, analytical thinking, interactive learning, multimedia, distance learning, innovative methods.

Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish zamonaviy pedagogikaning asosiy talablaridan biriga aylandi. Raqamli ta'lim resurslari, interaktiv platformalar, multimediya vositalari, virtual mashg'ulotlar va xorijiy ta'lim dasturlari o'quv jarayonining sifatini oshirish, talabalarning fanga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish hamda ularni mustaqil izlanishga yo'naltirishda katta imkoniyat yaratmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kabi tahlil va mantiqiy fikrlashga asoslangan fanlarda raqamli texnologiyalardan foydalanish talabalarda ijodiy fikrlash, kompleks yondashuv va analitik kompetensiyalarni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ta'limi hududiy iqtisodiy jarayonlar, migratsiya, urbanizatsiya, demografik jarayonlar va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dinamikasini o'rganishni o'z ichiga oladi. Ushbu jarayonlarni chuqur anglash uchun talabalarning faqat nazariy bilimlari emas, balki ularda kreativ fikrlash, vizual tahlil, modellashtirish, muammoli vaziyatlarga yechim topish kabi kompetensiyalar ham rivojlangan bo'lishi zarur. Raqamli texnologiyalar esa ushbu malakalarni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Xususan, geografik axborot tizimlari (GIS), onlayn xaritalar, raqamli statistik bazalar, interaktiv modellar va virtual laboratoriyalar yordamida talabalar murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni real vaqt rejimida o'rganish va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ta'limining mazmuni va kreativ fikrlash talablari. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining asosiy vazifasi — hududiy iqtisodiy jarayonlar, aholi dinamikasi, urbanizatsiya, migratsiya va ijtimoiy rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilishdir. Ushbu jarayonlar murakkab bo'lgani sababli, talabalardan nafaqat nazariy bilimlar, balki mustaqil tahlil qilish, kartografik materiallarni solishtirish, statistika bilan ishlash, baholash va xulosa chiqarish,

kreativ yondashuv asosida muammoga yechim topish kabi ko'nikmalarni talab qiladi. Bu o'rinda raqamli texnologiyalar talabalarga global iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlar haqida real, qiyosiy va aniq tasavvurlar hosil qilish imkonini beradi. Geografik axborot tizimlari (GIS), ArcGIS Online, Google Earth, QGIS, Gapminder, Datawrapper va Statista kabi zamonaviy xorijiy raqamli platformalar geografik jarayonlarni grafik, xarita, diagramma va dinamik animatsiyalar orqali o'rganishga imkon beradi. Bu esa o'quvchilarda nafaqat fazoviy tasavvurni kuchaytiradi, balki hududiy farqlarni solishtirish, statistik ma'lumotlarni sharhlash, hududlarning rivojlanish tendensiyalarini oldindan baholash kabi analitik fikrlash jarayonlarini faollashtiradi. GIS texnologiyalari yordamida talabalar real xaritalar bilan ishlash, boshqa hududlarga oid ma'lumotlarni qatlamlar bo'yicha tahlil qilish, ekologik jarayonlarni modellash va hududiy muammolarni aniqlash imkoniga ega bo'ladi. Shuningdek, 3D kartografiya, virtual sayohatlar, sun'iy yo'ldosh tasvirlari bilan ishlash, onlayn ma'lumotlar bazasini tahlil qilish kabi amaliy mashg'ulotlar talabalarning qiziqishlarini oshirib, o'quv jarayonini yanada interaktiv va samarali qiladi. Talabalar GIS loyihalari, virtual tadqiqotlar, onlayn xaritalash bo'yicha ijodiy ishlanmalar yaratishi mumkin. Xorijiy ta'lim dasturlari va raqamli platformalarning o'quv jarayoniga integratsiyasi. Zamonaviy ta'limda xorijiy o'quv resurslari va platformalari keng qo'llanilmoqda. Coursera, EdX, Khan Academy, OpenLearn kabi platformalarda iqtisodiy geografiya bo'yicha darslar mavjud bo'lib, talabalarning global bilim maydoniga integratsiyasini kuchaytiradi. Bundan tashqari, Google Earth Engine yordamida landshaft o'zgarishlarini tahlil qilish, ArcGIS StoryMaps orqali geografik hikoyalar yaratish, UNData, World Bank Data, UNDP Reports orqali iqtisodiy ko'rsatkichlarni solishtirish talabalar uchun ijodiy va tahliliy fikrlash tajribasini kengaytiradi. Raqamli ta'lim asosidagi dars quyidagi metodlar bilan kuchaytiriladi:

- Muammoli o'qitish metodi: talabalarga real iqtisodiy-ijtimoiy hodisalar bo'yicha muammo berilib, raqamli vositalar orqali yechim topish talab qilinadi.
- Interaktiv metodlar: kahoot, quizizz, mentimeter orqali kreativ fikrlash testlari.
- Loyiha asosida o'qitish: talabalar GIS loyihalari, aholi xaritalari, urbanizatsiya dinamikasi bo'yicha loyiha yaratadilar.
- Virtual ekskursiyalar: Google Earth va VR texnologiyalar yordamida shaharlar, landshaftlar va iqtisodiy mintaqalar bo'yicha virtual sayohatlar.

Bu metodlar ijodiy fikrlashni faollashtiradi, talabani faol subyekt sifatida shakllantiradi. Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ta'limida raqamli texnologiyalarni qo'llash talabalarda ijodiy va analitik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. GIS dasturlari, interaktiv xaritalar, virtual darslar va xorijiy ta'lim platformalari o'quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Raqamli vositalar orqali talabalar real vaqt ma'lumotlarini tahlil qilishi, muammolarga kreativ yechim topishi va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishi mumkin. Shu bois, ushbu texnologiyalarni ta'lim jarayoniga keng joriy etish iqtisodiy va ijtimoiy geografiya o'qitish sifatini oshirishning dolzarb yo'nalishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bondarenko O.V., Pakhomova O.V., Zaselskiy V. I. (2019). The use of cloud technologies when studying geography by higher school students. arXiv. <https://arxiv.org/abs/1909.04377>
2. Bondarenko O., Pakhomova O., Lewoniewski W. (2020). The didactic potential of virtual information educational environment as a tool of geography students training. arxiv. <https://arxiv.org/abs/2002.07473>
3. Eshpo'latov X., Axmedova A. (2022). Ta'lim jarayonini 3D texnologiyalar asosida tashkil qilish va rivojlantirish bosqichlari. Green Economy and

Development, 2(3), 45–52.
<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/7842>

4. Kholoshyn I., Bondarenko O., Hanchuk O., Shmeltser E. (2019). Cloud ArcGIS Online as an innovative tool for developing geoinformation competence with future geography teachers. arXiv. <https://arxiv.org/abs/1909.04388>